

NAVOIY HIKMATLARINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Karaxodjayeva Maxpuza Xamidullaevna
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
O'zbek va rus tillari kafedrası dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk mutafakkir va adib Alisher Navoiy ijodida muhim o'rin tutgan hikmatli so'zlarning mazmun-mohiyati hamda ularning bugungi jamiyat hayotidagi ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Navoiy hikmatlarida ilgari surilgan axloq, adolat, ilm, komil inson va jamiyat masalalari hozirgi globallashuv sharoitida ham dolzarbligini yo'qotmaganligi asoslab beriladi. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy va tahliliy metodlardan foydalanildi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, hikmat, ma'naviyat, axloq, komil inson, zamonaviy jamiyat.

Abstract: This article provides a scientific and theoretical analysis of the wise sayings (hikmats) found in the works of the great thinker and poet Alisher Navoi and examines their relevance in contemporary society. The study reveals that Navoi's ideas on morality, justice, knowledge, the concept of the perfect human being, and social harmony remain highly significant in the context of globalization. Historical-comparative and analytical research methods were employed to substantiate the conclusions.

Keywords: Alisher Navoi, wisdom, spirituality, morality, perfect human being, modern society.

Kirish. Alisher Navoiy o'zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandasi bo'lib, uning boy adabiy merosi nafaqat badiiy-estetik, balki chuqur falsafiy va axloqiy mazmunga ega. Navoiy asarlarida uchraydigan hikmatli fikrlar xalq ma'naviyatining shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2025- yil 8- fevralda o'tkazilgan "Alisher Navoiy va Sharq renessansi" simpoziumi ishtirokchilariga yuborgan tabrigida mutafakkir Alisher Navoiy ijodining ahamiyati haqida quyidagi fikrlarni bildirgan: "Jahon adabiyoti va tafakkuri tarixida o'chmas iz qoldirgan Alisher Navoiyning serqirra ijtimoiy-siyosiy, ijodiy, ilmiy-ma'rifiy faoliyati, boy adabiy-badiiy merosi asrlar davomida yuksak insonparvarlik, Vatanga sadoqat, adolat va ezgulik timsoli sifatida hamisha jahon ahlining e'tiborini tortib kelmoqda. Hazrat Mir Alisher Navoiy o'ta murakkab sharoitda milliy va umuminsoniy g'oyalarni baland ko'tarib maydonga chiqqani, o'zbek adabiy tiliga asos solib, uning o'lmas ruhi, qudrati

va latofatini har tomonlama isbotlab bergani chinakam ma'naviy jasorat namunasi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz...

Bugungi kunda biz Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessansni barpo etish jarayonlarida Alisher Navoiy asarlarini o'zimiz uchun bitmas-tuganmas kuch-g'ayrat va ilhom manbai deb bilamiz. Shu bois bu noyob ma'naviy boylikni chuqur o'rganish va targ'ib etish doimo e'tiborimiz markazida bo'ladi.", - deyilgan tabrikda. [1.1]

Bugungi kunda jamiyat hayotida ma'naviy qadriyatlar masalasining dolzarbligi, yoshlar tarbiyasi masalalari ham Navoiy hikmatlarini qayta tahlil etishni taqozo etadi.

Navoiy hikmatlarining manbaviy asoslari. Navoiy hikmatlari asosan uning "Mahbub ul-qulub", "Lison ut-tayr", "Xamsa" dostonlari, g'azallari va nasriy asarlarida mujassam. Ayniqsa, "Mahbub ul-qulub" asari pand-nasihati, axloqiy qarashlar va ijtimoiy munosabatlarga oid hikmatlar xazinasi hisoblanadi. Ushbu hikmatlar Sharq falsafasi va tasavvuf ta'limoti bilan chambarchas bog'liq holda shakllangan.

*Har kimki, qanoat tarafi nisbati bor,
Barcha el aro tavoze'u izzati bor,
Ulkim tama'u hirs bila ulfati bor,
Yaxshi-yamon ichra zillatu nakbati bor.* [2. 197]

Hikmatlarda axloq va komil inson g'oyasi

Sharq mumtoz adabiyotining yirik namoyandasi Alisher Navoiy ijodida axloq masalasi va komil inson g'oyasi markaziy o'rin tutadi. Mutafakkir shoir o'z asarlarida jamiyat taraqqiyoti, inson kamoloti va ma'naviy barkamollikni axloqiy mezonlar bilan chambarchas bog'liq holda talqin etadi. Navoiy hikmatlari insonni ezgulikka, halollikka, adolatga va ruhiy poklikka da'vat etuvchi chuqur falsafiy mazmunga ega bo'lib, bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Alisher Navoiy hikmatlarida axloq tushunchasi shaxsning ichki dunyosi, iymoni va amaliy xulqi bilan uzviy bog'liq holda yoritiladi. Shoir uchun axloq — insonni hayvoniy sifatlaridan ajratib turuvchi asosiy mezondir. U insonning qadr-qimmatini uning boyligi yoki mansabi bilan emas, balki axloqiy fazilatlari bilan belgilanadi, deb hisoblaydi.

*Kamol et kasbkim, olam uyidin
Sanga farz o'lmag'ay g'amnok chiqmoq.
Jahondin notamom o'tmak biaynih,
Erur hammomdan nopok chiqmoq.* [3.59]

Navoiy hikmatlarida halollik, rostgo'ylik, sabr, shukr, kamtarlik va saxovat kabi fazilatlar alohida ulug'lanadi. Masalan, shoir insonning chin kamoloti til va amal birligida namoyon bo'lishini ta'kidlaydi. So'z va amal uyg'un bo'lmagan joyda axloqiy yetuklik bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tiladi.

*Bu gulshan ichraki, yo'qtur baqo guliga sabot,
Ajab saodat erur chiqsa yaxshilik bila ot.* [3.109]

Komil inson tushunchasi va uning mezonlari

Navoiy ta'limotida komil inson — nafaqat ilmi, balki yuksak axloq egasi bo'lgan shaxsdir. Komillik shoir nazarida faqat aql bilan emas, balki qalb pokligi bilan belgilanadi. U ilmni axloq bilan uyg'un holda egallash zarurligini qayta-qayta uqtiradi. Komil insonning asosiy sifatlari sifatida Navoiy quyidagilarni ko'rsatadi:

- adolatparvarlik;
- insonparvarlik;
- nafsni tiyish;
- boshqalarga mehr-shafqat bilan munosabatda bo'lish;
- jamiyat manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo'yish.

Navoiy hikmatlarida nafs insonni tubanlikka yetaklovchi kuch sifatida talqin etiladi. Komil inson esa nafs ustidan g'alaba qozongan, o'zini tarbiyalay olgan shaxsdir.

Adib insonni ilmi, halol, adolatli va kamtar bo'lishga chorlaydi. Xususan, uning "Mahbub ul-qulub" asarida ilgari surilgan quyidagi hikmatli fikr bunga yaqqol misol bo'la oladi:

*"Ilmni kim vositai joh etar,
O'ziniyu xalqni gumroh etar...
Ko'ngli uyin ilm etibon bir jshon,
Qatrada ul nav'ki, daryo nihon "[3.206]*

Ushbu hikmatda ilmning shaxs kamolotidagi hal qiluvchi o'rni ta'kidlanadi.

Axloq va jamiyat munosabati

Navoiy axloqni faqat shaxsiy masala sifatida emas, balki jamiyat barqarorligining asosi sifatida ko'radi. Uning fikricha, axloqan yetuk shaxslar ko'paygan jamiyatda adolatsizlik, zulm va johillik kamayadi. Shu bois shoir hukmdorlar, olimlar va oddiy xalqni birdek axloqiy mas'uliyatga chaqiradi.

Hikmatlarda adolatli rahbar obrazi ham muhim o'rin egallaydi. Navoiy adolatni davlatning tayanchi, zulmni esa uning yemirilishiga sabab bo'luvchi illat sifatida baholaydi. Bu jihat shoirning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida komil inson g'oyasi faqat shaxsiy emas, balki ijtimoiy ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Shuningdek, Navoiy adolatni jamiyat barqarorligining asosiy omili sifatida talqin etadi: *"Adolatli podshoh elga panohdir."* Bu fikr bugungi kunda ham davlat boshqaruvi va fuqarolik jamiyati masalalarida muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Shu jihatdan, Navoiy hikmatlari yosh avlod tarbiyasida muhim metodologik manba sifatida ahamiyat kasb etadi.

Navoiy hikmatlarining zamonaviy talqini

Globallashuv va axborotlashuv davrida insoniy qadriyatlarining zaiflashuvi kuzatilayotgan bir paytda Navoiy hikmatlari ma'naviy muvozanatni tiklash vositasi sifatida ahamiyat kasb etadi. Uning hikmatlarida ilgari surilgan halollik,

mehnatsevarlik, to'g'ri so'zlik, vatanga muhabbat, ilmga intilish kabi fazilatlar zamonaviy jamiyatda ham dolzarb hisoblanadi.

Navoiy hikmatlarining asosida insonparvarlik, adolat, halollik, ilmga intilish va ma'naviy poklik g'oyalari yotadi. Shoir insonning qadr-qimmatini uning mansabi yoki boyligi bilan emas, balki axloqiy fazilatlar bilan o'laydi. Ushbu g'oyalar bugungi globallashuv davrida, moddiy qadriyatlar ustuvor bo'lib borayotgan bir sharoitda, alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Zamonaviy talqinda Navoiy hikmatlari shaxsning ichki mas'uliyati, ijtimoiy faolligi va ongli tanloviga urg'u beruvchi manba sifatida qaraladi. Masalan, shoirning rostgo'ylik va so'z mas'uliyati haqidagi fikrlari bugungi axborot makonida, ijtimoiy tarmoqlar davrida ayniqsa muhim ahamiyatga ega.

Hikmatlarning zamonaviy axloqiy talqini

Bugungi jamiyatda axloq masalasi shaxsiy hayot bilan cheklanmay, ijtimoiy munosabatlar, kasbiy etika va fuqarolik mas'uliyati bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'lmoqda. Navoiy hikmatlaridagi sabr, shukr, kamtarlik va saxovat kabi fazilatlar zamonaviy insonning ruhiy barqarorligini ta'minlovchi omillar sifatida talqin qilinadi.

Navoiy tomonidan keskin tanqid qilingan manmanlik, riyokorlik va nafsparastlik kabi illatlar bugungi davrda ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Zamonaviy talqinda bu illatlar iste'molchilik kayfiyati, soxta obro' orttirish va shaxsiy manfaatni jamiyat manfaatidan ustun qo'yish kabi ko'rinishlarda namoyon bo'lmoqda.

Navoiy hikmatlari va zamonaviy jamiyat

Zamonaviy talqinda Navoiy hikmatlari shaxs, jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlarni uyg'unlashtiruvchi axloqiy mezon sifatida baholanadi. Shoir ilgari surgan adolatli rahbar, mas'uliyatli fuqaro va ma'rifatli jamiyat g'oyalari bugungi huquqiy-demokratik jamiyat qurish jarayonida muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, Navoiy hikmatlarini zamonaviy ta'lim tizimida tarbiyaviy vosita sifatida qo'llash yosh avlodni tanqidiy fikrlashga, o'z ustida ishlashga va ma'naviy yetuklikka yo'naltiradi. Bu jihatdan mutafakkir merosi milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtiruvchi manba hisoblanadi.

Alisher Navoiy hikmatlarining zamonaviy talqini ularning mazmunan yangilanib, bugungi davr muammolari bilan mushtarak ekanini ko'rsatadi. Hikmatlarda ilgari surilgan g'oyalar hozirgi globallashuv sharoitida insonning ma'naviy o'zligini asrash, jamiyatda axloqiy muvozanatni ta'minlash va barkamol shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Shu bois, Navoiy hikmatlari zamonaviy tafakkur bilan uyg'un holda o'rganilishi va keng targ'ib etilishi zarur.

Navoiy hikmatlarining tarbiyaviy ahamiyati

Alisher Navoiy o'zining boy adabiy-falsafiy merosi bilan o'zbek va jahon adabiyotida muhim o'rin egallaydi. Mutafakkir shoir ijodida hikmatlar insonni

ma'naviy yetuklikka, axloqiy poklikka va komillikka yetaklovchi muhim tarbiyaviy manba sifatida namoyon bo'ladi. Navoiy hikmatlarida ilgari surilgan g'oyalar bugungi globallashuv sharoitida yosh avlodni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda alohida ahamiyat kasb etadi. Navoiy hikmatlarining mazmuniy xususiyatlari

Navoiy hikmatlarining asosiy mazmuni insonparvarlik, adolat, halollik, ilmga intilish va ma'naviy poklik g'oyalariga tayanadi. Shoir hikmatlar orqali insonni o'zini anglashga, nafsni tiyishga va ezgulikka intilishga chorlaydi. Bu jihat hikmatlarning faqat badiiy emas, balki kuchli tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Hikmatlarda til madaniyati, so'z mas'uliyati va xulq-atvor muhim tarbiyaviy mezon sifatida talqin qilinadi. Navoiy uchun so'z — inson axloqining ko'zgusi bo'lib, notog'ri so'z jamiyatda nizolar va ishonchsizlikni keltirib chiqaradi.

Hikmatlarning shaxs tarbiyasidagi o'rni

Navoiy hikmatlari shaxsning ichki dunyosini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Shoir insonni sabr-toqatli, shukrli va kamtar bo'lishga da'vat etadi.

Navoiy hikmatlarida shaxs tarbiyasida so'z va amal birligi muhim o'rin tutadi. Navoiy hikmatlarida so'z madaniyati va nutq tarbiyasi alohida e'tibor bilan yoritiladi. Shoir tilni inson axloqining ko'zgusi sifatida talqin etadi:

“Tilga ixtiyorsiz — elga e'tiborsiz.”[3.321]

Ushbu hikmat bugungi axborot makonida, ayniqsa yoshlar tarbiyasida so'z mas'uliyati va nutq madaniyatini shakllantirish zarurligini ko'rsatadi. Navoiy fikricha, tarbiyali inson avvalo o'z tilini nazorat qila olishi lozim.

Ushbu fazilatlar zamonaviy pedagogika nuqtayi nazaridan shaxsning ruhiy barqarorligi va ijtimoiy moslashuvini ta'minlovchi omillar sifatida baholanadi.

Ayniqsa, hikmatlarda ilm va tarbiya o'zaro uyg'un holda talqin qilinadi. Navoiy ilmni axloq bilan bog'lamagan holda haqiqiy kamolotga erishib bo'lmagligini ta'kidlaydi. Bu qarash bugungi ta'lim tizimida bilim bilan bir qatorda tarbiyaning ustuvorligini asoslab beradi.

Hikmatlarning ijtimoiy-tarbiyaviy ahamiyati

Navoiy hikmatlarining tarbiyaviy ahamiyati faqat shaxs doirasi bilan cheklanmay, jamiyat hayotida ham muhim rol o'ynaydi. Shoir adolatli jamiyat barpo etishning asosiy sharti sifatida axloqiy yetuk shaxslarni ko'radi. Hikmatlarda adolat, mas'uliyat va vijdon tushunchalari ijtimoiy barqarorlikning tayanchi sifatida yoritiladi.

Bugungi kunda Navoiy hikmatlarini ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish yosh avlodda milliy qadriyatlarga hurmat, fuqarolik mas'uliyati va ijtimoiy faollikni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan mutafakkir merosi zamonaviy tarbiya konsepsiyasi bilan hamohangdir.

Navoiy hikmatlarining markazida inson axloqi turadi. Shoir axloqni shaxs tarbiyasining poydevori deb biladi. Shoir insonning chinakam qadr-qimmatini uning

jamiyatga bo'lgan munosabati orqali belgilaydi. Bu fikr quyidagi mashhur baytda yaqqol ifodalanadi:

*“Odamiy ersang, demagil odami,
Onikim yo ‘q xalq g‘amidin g‘ami.” [3.211.]*

Mazkur iqtibosda Navoiy insoniylikning asosiy mezoni sifatida boshqalarga befarq bo'lmaslik, jamiyat g'amini o'z g'ami deb bilishni ilgari suradi. Bu g'oya bugungi tarbiya tizimida ijtimoiy mas'uliyat va fuqarolik ongini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Navoiy hikmatlaridan ta'lim-tarbiya jarayonida samarali foydalanish yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini boyitadi. Ular orqali milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va axloqiy me'yorlar mustahkamlanadi.

Navoiy hikmatlarida tarbiya jamiyat hayoti bilan bevosita bog'lanadi. Shoir adolat va axloqni jamiyat barqarorligining asosi deb biladi:

*“Adolatdin yiroq el ichra davlat bo'lmas.”,
“Adolat qilsa shoh — el bo'lg'ay obod.”*

Bu hikmat orqali Navoiy jamiyat taraqqiyoti axloqiy yetuklik va adolatga asoslanishini ta'kidlaydi. Bu fikr bugungi huquqiy-demokratik jamiyat qurish jarayonida ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Navoiy hikmatlari yosh avlodni adolatparvarlik, vijdon va mas'uliyat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu jihatdan, Navoiy hikmatlari nafaqat adabiy, balki pedagogik ahamiyatga ham ega.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy hikmatlari chuqur tarbiyaviy mazmunga ega bo'lib, insonni ma'naviy kamolot sari yetaklaydi. Ular bugungi jamiyat hayotida ham o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Ular insonni ma'naviy kamolotga yetaklaydi, jamiyatda sog'lom axloqiy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. Hikmatlarda ilgari surilgan axloqiy g'oyalar bugungi yosh avlodni barkamol, mas'uliyatli va insonparvar shaxs etib tarbiyalashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Navoiy hikmatlarini zamonaviy ta'lim va tarbiya tizimida keng qo'llash ma'naviy barkamol jamiyat barpo etishga zamin yaratadi. Hozirgi kunda Navoiy hikmatlarini zamonaviy ilmiy yondashuv asosida o'rganish va targ'ib etish dolzarb vazifalardan biridir. Navoiy hikmatlarini ta'lim-tarbiya jarayonida keng qo'llash ma'naviy barkamol jamiyat barpo etishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev, Sh.M. (2025). “Alisher Navoiy va Sharq renessansi” simpoziumi ishtirokchilariga yuborilgan tabrigi.
2. Navoiy, A. (2019). *Mahbub ul-qulub*.- Toshkent: Yangi asr avlodi.
3. Navoiy, A. (2011). *Hikmatlar*.- Toshkent: O'zbekiston.
4. Navoiy, A. (2018). *Xamsa*. - Toshkent: Yangi asr avlodi.
5. Navoiy, A. (2015). *Nasoyim ul-muhabbat*. - Toshkent: O'zbekiston.
6. Ma'naviyat yulduzlari. (2001). - Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi.
7. Yo'ldoshev, Q. (2018). *Mumtoz adabiyot va zamonaviy tafakkur*. Toshkent: Akademnashr.